

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

**TEATRLARNING JAMIYAT MADANIY HAYOTIDAGI AHAMIYATINI OSHIRISH VA
ULAR FAOLIYATINI YANADA QO‘LLAB-QUVVATLASH CHORA-TADBIRLARI
TO‘G‘RISIDA**

[Ko‘chirma]

Mamlakatimizda teatr san‘atini yanada rivojlantirish, teatrlar faoliyatini takomillashtirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sohada ijodiy hamkorlik va erkinlikni ta‘minlash, spektakllarning badiiy saviyasini oshirishni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, budjet mablag‘lari va boshqa resurslardan samarali foydalanish, sohaga jahon teatr san‘atining ilg‘or tajribalari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish maqsadida:

1. 2025 — 2030-yillarda 1-ilovaga muvofiq:

buyuk tarixiy shaxslarning ibratli hayoti va ijodi, ularning bolaligi va yoshligini ifodalovchi milliy qahramon obrazlari;

insonning jamiyatdagi o‘rni va qadr-qimmatini targ‘ib etuvchi “Inson qadri uchun” ezgu g‘oyasi asosida yangi sahna asarlari yaratib borilsin.

Belgilansinki:

teatr jamoalari davlat buyurtmasi asosida yaratilgan spektakllar bilan reja asosida respublika bo‘ylab gastrol safarlariga yuboriladi;

teatr san‘atining zamonaviy janr va yo‘nalishlaridagi spektakllarga ham davlat buyurtmasi berib boriladi;

davlat teatrlarida vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning buyurtmalari asosida ularning budjetdan tashqari mablag‘lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan spektakllar sahnalashtiriladi.

2. 2025 — 2028-yillarda davlat teatrlari binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va modernizatsiya qilishning manzilli dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda loyihalash va qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda quyidagilar inobatga olinadi:

teatrning yo‘nalishi kelib chiqqan holda arxitektura-rejalashtirish, sahna mexanizmlari, tomosha zalining akustik talablarga javob berishi, zamonaviy raqamli va dasturlashtirilgan texnologiyalar bilan jihozlash va landshaft yechimlarini qo‘llash;

tashrif buyuruvchilar, xususan, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, turistlarga xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish;

teatrlarning zamonaviy yangi konsepsiyalari, sohaga xorijiy ilg‘or tajribalarni samarali qo‘llash.

3. Teatr san‘atini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasi 2025-2026-yillarda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani asosida myuzikl yaratsin, uning tantanali premyerasini, alohida reja asosida mamlakatimiz va jahon bo‘ylab gastrollarini tashkil etsin.

5. Teatr san‘atida ijodiy hamkorlikni rivojlantirish, dramaturglar va yosh rejissyorlarni rag‘batlantirish maqsadida:

dramaturglar uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi mukofot hamda yosh rejissyorlar uchun O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti va san‘at arbobi Bahodir Yo‘ldoshev nomidagi mukofot ta‘sis etilsin, ushbu mukofotlar bo‘yicha tanlovlar har ikki yilda o‘tkazilib, ularning g‘oliblari mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 50 barobari miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlansin;

rejissyor — dramaturg — kompozitor — rassom tamoyili asosida ijodiy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan 2025-yildan boshlab har yili avgust oyida “Nigoh” ijodiy loyihasi amalga oshirilsin;

“Nigoh” ijodiy loyihasi doirasida hamkorlikda yaratilgan va ijodiy tanlov asosida aniqlangan eng yaxshi 5 ta asarni ushbu loyiha granti asosida teatrlarda sahnalashtirish hamda rejissyor, dramaturg, kompozitor, rassomlarni moddiy rag‘batlantirib borish amaliyoti joriy qilinsin;

milliy akademik musiqa san‘atini rivojlantirish va ommalashtirish maqsadida har ikki yilda milliy kompozitorlar tanlovi o‘tkazib borilsin.

6. Teatrlar bilan ta‘lim tashkilotlarining uzviy hamkorligini yo‘lga qo‘yish maqsadida:

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutiga maqsadli qabul kvotalari teatrlardagi kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olib belgilansin;

kasbiy ta‘lim tashkilotlarining so‘nggi bosqich o‘quvchilari, uchinchi va to‘rtinchi bosqich bakalavr hamda magistratura talabalarining haftada kamida ikki kun teatrlarda amaliy mashg‘ulotlar o‘tashi yo‘lga qo‘yilsin;

har yili davlat buyurtmasi uchun budjetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida musiqiy teatr, dramatik va qo‘g‘irchoq teatri rejissyorligi yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilarining beshtagacha eng yaxshi bitiruv malakaviy ishlari uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 100 barobarigacha miqdorda davlat buyurtmasi berib borilsin;

har yili beshtagacha maqsadli ilmiy-tadqiqot loyihalari belgilangan tartibda Davlat budjetidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini amalga oshirish uchun ajratilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilsin.

Madaniyat vazirligi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda ushbu bandeda belgilangan vazifalarning samarali bajarilishini ta‘minlasin.

7. Teatr san‘ati hamda teatr tanqidchiligida “ustoz-shogird” an‘analari va mahorat maktablarini rivojlantirish maqsadida teatr san‘atidagi iste‘dodli va yuqori malakali ijodkorlar, teatrshunoslar va san‘atshunoslarning mahorat maktablari tashkil etilsin.

Bunda:

mahorat maktablari tashkil etiladigan ijodkorlar ro‘yxati Madaniyat vazirligi hay‘ati qarori bilan tasdiqlanadi;

mahorat maktabini yaratgan ijodkorlar belgilangan tartibda asosiy ish joyining (tashkilotining) budjetdan tashqari rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan har chorakda bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravari miqdorida mahorat maktablarida o‘qitish samaradorligini baholash asosida qo‘shimcha rag‘batlantirib boriladi;

mahorat maktablariga ularni tashkil etgan ijodkorlar faoliyat yuritadigan tashkilot obyektlaridan mahorat darslarini o‘tish uchun joy ajratiladi va boshqa zarur shart-sharoitlar yaratiladi;

mahorat maktablari xorijiy mutaxassislar bilan shartnomalar asosida ham tashkil etilishi mumkin.

8. Bolalar va o‘quvchi-talabalarining teatr san‘atiga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish va ularning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish maqsadida:

a) Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan:

maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalar uchun stol usti, barmoq, qo‘lqopli va qo‘g‘irchoqli kichik sahna ko‘rinishlarini sahnalashtirish hamda bolalar ijodiy jamoalari faoliyati yo‘lga qo‘yilsin;

davlat umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida maktab teatr jamoalari tashkil etilsin hamda ular o‘rtasida “Turon” maktab teatri respublika tanlovi o‘tkazib borilsin;

“Barkamol avlod” bolalar maktablarida “Tasavvur” qo‘g‘irchoq teatri to‘garaklari tashkil etilsin;

b) Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan oliy ta‘lim muassasalarida talabalar teatr-studiyalari faoliyati kengaytirilsin hamda ular o‘rtasida teatr-studiyalar respublika ko‘rik-festivali o‘tkazib borilsin.

Belgilansinki, ushbu bandeda nazarda tutilgan:

tadbirlarning yuqori bosqichlari teletanlov va tele-shou shaklida tashkil etiladi;

tadbirlarning respublika bosqichida 1, 2 va 3-o‘rinni egallagan jamoalar tegishli ravishda bazaviy hisoblash miqdorining 100, 70 va 50 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Madaniyat vazirligi bilan hamkorlikda bolalar va o‘quvchi-talabalarning yoshi, qiziqishlari, ta’lim-tarbiya olishi, ijodiy va intellektual rivojlanishini inobatga olib, 2025-yildan boshlab har yili 10 ta pyesa yaratib, ularning elektron to‘plamini tuzsin.

9. Madaniyat vazirligi huzuridagi Teatrlar faoliyati bo‘yicha badiiy kengash tugatilib, spektakllarning janri va mavzusini inobatga olgan holda ixtisoslashgan badiiy-ekspert guruhlari tashkil etilsin va ular faoliyatiga mutanosib ravishda haq to‘lab borilsin.

Davlat teatrlarida bosh rejissyor teatr badiiy kengashining rahbari hisoblansin (bundan badiiy rahbar lavozimi joriy etilgan teatrlar mustasno). Bosh rejissyorning badiiy faoliyatiga teatr direktorining aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

10. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatri huzurida ushbu teatrning amaldagi shtat jadvali doirasida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Teatr rejissyorlari akademiyasi tashkil etilsin.

Belgilansinki:

Teatr rejissyorlari akademiyasi Madaniyat vazirligiga tegishli binolar, teatr sahnalari, dekoratsiya va boshqa jihozlardan o‘quv maqsadlarida bepul foydalanishi mumkin;

Teatr rejissyorlari akademiyasi davlat buyurtmasi asosidagi spektakllarni sahnalashtirish jarayoniga ijodiy ko‘maklashadi;

Teatr rejissyorlari akademiyasida davlat teatrlari rejissyorlari har ikki yilda, shu jumladan, yangi tayinlangan rejissyorlar o‘z faoliyatini boshlashidan oldin kamida ikki oy davomida individual dastur asosida amaliy mashg‘ulotlardan o‘tadi, shuningdek, ushbu dastur doirasida yangi janr va yo‘nalishlardagi spektakllarni sahnalashtirish amaliy tajribadan o‘tkaziladi. Teatr rejissyorlari faqat Teatr rejissyorlari akademiyasida malaka oshiradi;

davlat teatrlarida bosh rejissyorga nisbatan intizomiy jazolar qo‘llash Teatr rejissyorlari akademiyasi bilan majburiy tartibda kelishgan holda amalga oshiriladi.

Madaniyat vazirligi ikki oy muddatda Teatr rejissyorlari akademiyasi faoliyatini tashkil etsin, shuningdek, kelgusida uning samarali faoliyati olib borishiga har tomonlama ko‘maklashsin.

11. Teatrlar faoliyatiga tahliliy baho berish va teatr tanqidchiligini rag‘batlantirish maqsadida quyidagilar joriy etilsin:

teatrshunoslik va san‘atshunoslik yo‘nalishi doktorantlari hamda professor-o‘qituvchilarning har oyda kamida ikkita spektakl tomosha qilish va har chorakda kamida bir marotaba yangi spektakl ko‘rigi va muhokamasida ishtirok etish;

har bir teatrga teatr tanqidchilari sifatida teatrshunos, san‘atshunos, dramaturglarni jalb etish;

teatr tanqidchilari va dramaturglari klubini tashkil etish hamda har chorakda kamida bir marotaba badiiy tanqid va dramaturgiyani rivojlantirish bo‘yicha davra suhbatlari, seminarlar va omma e‘tiborida bo‘lgan sahna asarlari muhokamasini o‘tkazish.

Madaniyat vazirligi ikki oy muddatda ushbu bandeda nazarda tutilgan teatr tanqidchiligini rag‘batlantirish tartibini belgilasin. Bunda har bir yangi asar bo‘yicha mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorida Madaniyat vazirligiga ajratiladigan budjet mablag‘lari hisobidan rag‘batlantirish nazarda tutilsin.

12. Teatrlarda davlat buyurtmasi asosida spektakllarni sahnalashtirish hamda tarixiy va zamonaviy mavzular bo‘yicha sahna asarlarini yaratishni rag‘batlantirish maqsadida:

milliy mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning yuqori badiiy-g‘oyaviy saviyaga ega asarlarini teatrlarda sahnalashtirish maqsadida inssenirovka uchun har yili 10 tagacha davlat buyurtmasi berib borilsin;

har yili spektakllarni sahnalashtirish uchun nodavlat teatr va teatr-studiyalarga Madaniyat vazirligi tomonidan uning hisob-kitoblariga muvofiq davlat buyurtmasini berib borish yo‘lga qo‘yilsin;

2025-yildan boshlab, har ikki yilda tarixiy va zamonaviy mavzular bo‘yicha “Eng yaxshi pyesalar” tanlovi tashkil etilsin va tanlovda g‘olib deb topilgan 20 ta eng yaxshi pyesalar teatrlarda sahnalashtirilib, har bir yo‘nalish bo‘yicha tanlov g‘oliblariga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 50 barobarigacha miqdorda bir martalik mukofot puli berilsin;

jahon dramaturgiyasi namunalaridan tarjima qilingan asarlar bo'yicha har yili "Eng yaxshi tarjima sahna asarlari" tanlovi joriy etilsin va tanlov g'oliblariga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 50 barobarigacha miqdorda bir martalik mukofot puli berilsin;

2027-yil yakuniga qadar madaniyat va san'at ta'lim muassasalari o'quvchi-talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanadigan 50 tagacha xorijiy adabiyotlarni davlat buyurtmasi asosida o'zbek tiliga tarjima qilish amaliyoti joriy qilinsin;

2025-yildan boshlab, har yili 25 nafar ijodiy va yordamchi xodimlarning xorijiy davlatlar teatrlarida mahoratini oshirishni yo'lga qo'yish tizimi joriy qilinsin.

13. Belgilansinki, 2025-yildan boshlab, O'zbekiston teatr jamoalarining milliy reytingi tuziladi hamda har yili 27-mart — Xalqaro teatr kunida e'lon qilinadi.

Bunda:

teatr xodimlari milliy reytingga, shuningdek, Madaniyat vazirligi tomonidan belgilanadigan teatrlar ijodiy xodimlarining spektakl sahnalashtirish va ijro etish me'yorlariga muvofiq holda rag'batlantiriladi;

milliy reyting teatrlar va ularning ijodiy xodimlarining faoliyatini baholash hamda yil davomida namoyish etilgan sahna asarlariga tomoshabinlarning munosabatlari asosida shakllantiriladi.

14. Aholi, ayniqsa, yoshlarning teatrlarga doimiy tashriflarini nazarda tutuvchi "Teatr — ibratxonadir" dasturi amalga oshirilsin. Belgilansinki, uning doirasida:

spektakllarning chiptalariga chegirmalar taqdim qilish va aksiyalar o'tkazish tavsiya etiladi;

"Mahalla yettiligi" a'zolari bilan birgalikda har oyda mahallalarda "Teatr kuni" tadbirlari o'tkazish yo'lga qo'yiladi. Bunda ijodiy uchrashuvlar va teatrlashtirilgan kompozitsiya namoyishlari yoki teatrlarga tashriflar tashkil etiladi;

"Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolar va nogironligi bo'lgan shaxslar davlat teatrlarining spektakllariga bepul kiritiladi.

15. Belgilab qo'yilsinki, teatrga tomoshabinlarni jalb etishni rag'batlantirish maqsadida 2025-yildan boshlab:

teatrlar faoliyati, shu jumladan, ularda namoyish etilayotgan asarlarni reklama qilish xarajatlarini moliyalashtirish uchun davlat buyurtmasi asosida asarlarni yaratish uchun rejalashtirilgan budget mablag'larining 10 foizigacha miqdorda mablag' yo'naltirishga;

chiptalarni realizatsiya qilishni autsorsing asosida amalga oshirishga;

teatrning asosiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda savdo nuqtalarini, pulli xizmatlar ko'rsatish shoxobchalarini, shu jumladan, reklama vositalarini joylashtirishga, tashrif buyuruvchilar uchun "Sahna ortiga sayohat" mavzusidagi ekskursiyalarni tashkil etishga;

teatrlar brendini yaratish, faoliyatini targ'ib qilish, marketing va qo'shimcha pulli xizmatlarni yo'lga qo'yishda xususiy sektor xizmatlaridan foydalanishga ruxsat beriladi.

Belgilansinki, davlat teatrlari tomonidan spektakl premyeralari kamida bir oy oldin e'lon qilib boriladi.

16. Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi va Madaniyat vazirligining teatrlar faoliyatini ommalashtirish, ularga tashrif buyuruvchilarni rag'batlantirish maqsadida Bilet operatsiyalari yagona elektron tizimi orqali sotilgan teatr chiptalari asosida sovrinli o'yinlar tashkil qilish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

17. Mamlakatimizda musiqali teatr san'atini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi hamda bu sohada erishayotgan ulkan yutuqlari uchun Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatriga "Akademik" maqomi berilsin.

18. Belgilansinki, 2026-yil yakuniga qadar O'zbekiston davlat yoshlar teatri faoliyati zamonaviy namunali teatr sifatida tashkil etiladi.

Bunda ushbu teatrdan jahonning nufuzli teatrlaridagi eng ilg'or tajribalar asosida zamonaviy ko'rinishdagi spektakllar, tomosha dasturlarini namoyish etish hamda uni teatr texnologiyalari bilan jihozlash nazarda tutiladi.

Madaniyat vazirligi Toshkent shahri hokimligi bilan birgalikda ushbu bandda belgilangan vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlasin.

19. 2025-yil 1-yanvardan boshlab 2026-yil 31-dekabrga qadar huquqiy eksperiment tariqasida O‘zbekiston davlat yoshlar teatri hamda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatriga moliyaviy, ijodiy va tashkiliy masalalarni mustaqil hal qilish vakolati berilsin.

Bunda:

amaldagi umumiy shtat birliklaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda va ish haqi fondi doirasida shtat birliklari soni va lavozimlar hamda Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar hisobidan qo‘shimcha rag‘batlantirish miqdorlari ushbu teatrlar tomonidan mustaqil belgilanadi;

ijodiy jarayonlarga mahalliy va xorijiy yuqori malakali ijodkor va mutaxassislar ushbu teatrlar tomonidan jalb etiladi;

ushbu teatrlar tomonidan teatrlar faoliyati bilan bog‘liq davlat xaridlari ular faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi;

teatrlar direktori, badiiy rahbari, bosh rejissyori faoliyati samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) Madaniyat vazirligi tomonidan belgilanadi;

shtat lavozimlaridan oqilona foydalanish holatini o‘rganish, shuningdek, badiiy, boshqaruv va yordamchi xodimlar attestatsiyadan o‘tkazilishi mumkin.

Ushbu teatrlar tomonidan namoyish etiladigan spektakllari soni, tomoshabinlarni jalb qilish hamda mablag‘ ishlab topish rejasi 2024-yildagi ko‘rsatkichlarni kamida 20 foizga oshirilgan holda bajarilishi belgilanadi.

Madaniyat vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda ushbu bandeda nazarda tutilgan masalalar bo‘yicha teatrlarga amaliy yordam ko‘rsatib borsin.

20. Vazirlar Mahkamasi 2025-yil sentabr oyiga qadar Toshkent shahrida davlat teatrlari uchun dekoratsiyalar va teatr jihozlarini saqlashga markazlashtirilgan ombor binosini belgilash, shuningdek, dekoratsiya va liboslar ishlab chiqarish sexlarini tashkil etish choralari ko‘rsin.

21. Madaniyat vazirligi va Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha xorijdan olib kelinadigan, teatrlarning faoliyati uchun zarur bo‘lgan musiqa asbob-uskunalari, texnik jihozlar, dekoratsiyalar, chiroqlar, grim mahsulotlari va boshqa ashyolar 2030-yil 1-yanvargacha qadar bojxona bojidan ozod etilsin.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga [4-ilovaga](#) muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

23. Madaniyat vazirligi Adliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda:

davlat teatrlarining bugungi zamonaviy va tez o‘zgarib borayotgan zamonda aholining madaniy ehtiyojlarini qanoatlantirish va ma’naviyatini yuksaltirishdagi o‘rni va ahamiyatini chuqur tahlil qilib, ushbu maqsadlar uchun ajratilayotgan resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha takliflarni;

qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risidagi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

24. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib madaniyat vaziri O.A. Nazarbekov belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2024-yil 22-noyabr,
PQ-399-son

2025 — 2028-yillarda davlat teatrlari binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va modernizatsiya qilishning

MANZILLI DASTURI

T/r	Teatrlar nomi	Amalga oshirish muddati	Moliyalashtirish manbasi
Yangi qurilish			
1.	Toshkent viloyatida ko'p funksiyali drama teatri	2025 — 2027-yillar	O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida ajratilgan mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan
Rekonstruksiya qilish			
1.	O'zbekiston davlat satira teatri	2025-2026-yillar	O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida ajratilgan mablag'lar hisobidan
2.	Samarqand viloyati qo'g'irchoq teatri		
3.	Andijon viloyati musiqali drama teatri	2026-2027-yillar	
4.	O'zbekiston davlat musiqali komediya (operetta) teatri		
5.	O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri	2027-2028-yillar	
6.	Farg'ona viloyati rus drama teatri		
7.	Samarqand viloyati rus drama teatri	2028-2029-yillar	
Mukammal ta'mirlash			
1.	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri	2025-2026-yillar	O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti
2.	Qo'qon shahar musiqali drama teatri	2026-2027-yillar	
3.	Buxoro viloyati musiqali drama teatri	2027-2028-yillar	

Izoh: ushbu dasturga asosan yangi quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan va mukammal ta'mirlanadigan teatrlar binolari tomosha zallari akustika talablariga javob berishi, binolarni jihozlash ishlari zamonaviy texnologiyalar asosida amalga oshirilishi loyiha-smeta hujjatlarida alohida nazarda tutiladi.

Teatr san'atini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar

DASTURI

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Hujjat shakli	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
1.	<p>Buyuk tarixiy shaxslarning ibratli hayoti va ijodi, ularning bolaligi va yoshligini ifodalovchi milliy qahramon obrazlari bilan yangi sahna asarlari yaratish.</p> <p>Bunda: ushbu spektakllarni yillar kesimida sahnalashtirish rejasi Madaniyat vazirligi takliflari asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlash; Madaniyat vazirligi tomonidan davlat buyurtmasi mavzusini e'lon qilish va g'olib bo'lgan davlat teatrida spektakl sahnalashtirish; teatr jamoalarini ushbu spektakllar bilan respublika bo'ylab gastrol safarlariga yuborish.</p>	Madaniyat vazirligining buyrug'i	2025-yil fevral oyidan boshlab, alohida reja asosida	2025-yilda Madaniyat vazirligiga ajratiladigan budget mablag'lari, kelgusi yillarda Davlat budjeti mablag'lari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Yozuvchilar uyushmasi (S. Sayidov), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (O. Xasanov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari
2.	<p>Insonning jamiyatdagi o'rni va qadr-qimmatini targ'ib etuvchi "Inson qadri uchun" ezgu g'oyasi asosida yangi sahna asarlari yaratish.</p> <p>Bunda: "Inson qadri uchun" ezgu g'oyasi asosida yangi sahna</p>	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil aprel oyidan boshlab, alohida reja asosida	Vazirliklar va idoralarning budgetdan tashqari mablag'lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar	Vazirlik va idoralar, Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari

	<p>asarlarini yaratishda buyurtmachi hisoblangan tegishli vazirlik va idoralar, Madaniyat vazirligi va spektakl sahnalashtiradigan davlat teatri bilan uch tomonlama shartnoma tuzish;</p> <p>ushbu spektakllarni yillar kesimidagi sahnalashtirish rejasini Madaniyat vazirligi, tegishli vazirlik va idoralar takliflari asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlash;</p> <p>teatr jamoalarini ushbu spektakllar bilan respublika hududlari bo'yicha gastrol safarlariga yuborish.</p>				
3.	<p>Milliy mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning yuqori badiiy-g'oyaviy saviyaga ega asarlarini teatrlarda sahnalashtirish maqsadida inssenirovka uchun har yili 10 tagacha davlat buyurtmasi berib borish.</p>	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yildan boshlab doimiy ravishda	Madaniyat vazirligiga ajratiladigan budget mablag'lari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Yozuvchilar uyushmasi (S. Sayidov), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (O. Xasanov)
4.	<p>Nodavlat teatr va teatr-studiyalarga davlat buyurtmasi berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash.</p> <p>Ushbu nizomga muvofiq, 2025-yildan boshlab har yili nodavlat teatr va teatr-studiyalarga davlat</p>	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi	2025-yil mart	Madaniyat vazirligiga ajratiladigan budget mablag'lari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Adliya vazirligi (A. Tashkulov)
			2025-yildan boshlab, har yili		

	buyurtmalarini berib borish, ularni tegishli davlat teatrlarida namoyish etish.				
5.	<p>Musiqiy teatr, dramatik va qo'g'irchoq teatri rejissyorligi yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilarining beshtagacha eng yaxshi bitiruv malakaviy ishlari uchun davlat buyurtmasini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash.</p> <p>Ushbu nizomga muvofiq 2024/2025 o'quv yilidan boshlab, bitiruvchilarga malakaviy ishlari uchun davlat buyurtmasini berib borish hamda o'quv-teatr studiyasi va tegishli davlat teatrlarida namoyish etish.</p>	Madaniyat vazirining buyrug'i	<p>2025-yil aprel</p> <p>2024/2025 o'quv yilidan boshlab, har yili</p>	Madaniyat vazirligiga ajratiladigan budget mablag'lari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)
6.	<p>Dramaturglar uchun Mahmudxo'ja Behbudiy nomidagi mukofot hamda yosh rejissyorlar uchun O'zbekiston Respublikasi xalq artisti va san'at arbobi Bahodir Yo'ldoshev nomidagi mukofot to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash.</p>	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi	2025-yil aprel	Davlat budjeti mablag'lari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), manfaatdor vazirlik va idoralar
7.	<p>Rejissyor — dramaturg — kompozitor — rassom tamoyili asosida ijodiy hamkorlik</p>	Ijrochilarning qo'shma qarori	2025-yil fevral	Madaniyat vazirligiga ajratiladigan budget mablag'lari, qonunchilik	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Yozuvchilar uyushmasi (S. Sayidov), Badiiy akademiya

	<p>maydonini kengaytirishga qaratilgan “Nigoh” ijodiy loyihasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash.</p> <p>Ushbu nizomga muvofiq “Nigoh” ijodiy loyihasini 2025-yildan boshlab har yili avgust oyida tashkil etib borish.</p>			<p>hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar</p>	<p>(A. Nuridinov), O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi (R. Abdullayev)</p>
8.	<p>O‘zbekiston teatr arboblari uyushmasi huzurida teatr tanqidchilari va dramaturglar klubi faoliyatini yo‘lga qo‘yish.</p>	<p>Amaliy chora-tadbirlar</p>	<p>2025-yil fevral</p>	<p>O‘zbekiston teatr arboblari uyushmasiga ajratiladigan mablag‘lar, homiylik xayriyalari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar</p>	<p>O‘zbekiston teatr arboblari uyushmasi (Y. Axmedov), Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Yozuvchilar uyushmasi (S. Sayidov)</p>
9.	<p>Milliy akademik musiqa san‘atini rivojlantirish va ommalashtirish maqsadida milliy kompozitorlar tanlovi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash.</p> <p>Ushbu nizomga muvofiq tanlovni 2025-yildan boshlab, har ikki yilda o‘tkazib borish.</p>	<p>Ijrochilarning qo‘shma qarori</p>	<p>2025-yil mart</p> <p>2025-yildan boshlab, har ikki yilda</p>	<p>Davlat budjeti mablag‘lari, homiylik xayriyalari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar</p>	<p>Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi (R. Abdullayev)</p>
10.	<p>Tarixiy va zamonaviy mavzular bo‘yicha “Eng yaxshi pyesalar” tanlovi va jahon dramaturgiyasi namunalaridan tarjima qilingan asarlar bo‘yicha “Eng yaxshi tarjima sahna asarlari” tanlovi to‘g‘risidagi</p>	<p>Madaniyat vazirining buyrug‘i</p>	<p>2025-yil aprel</p>	<p>Madaniyat vazirligiga ajratiladigan budget mablag‘lari</p>	<p>Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Yozuvchilar uyushmasi (S. Sayidov), Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (O. Xasanov)</p>

	<p>nizomlarni tasdiqlash.</p> <p>Ushbu nizomlarga muvofiq tanlovlarni 2025-yildan boshlab har yili o‘tkazib borish.</p>	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yildan boshlab har yili		
11.	<p>Adabiy qism mudiri lavozimi teatrlarning ijodiy ishlab chiqarish ishlarida muhim ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib, malaka talablarini qayta ko‘rib chiqib, tasdiqlash.</p> <p>Bunda aholi, ayniqsa yoshlarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi o‘zgarishlarni bilishi, ularning turmush tarzi, xohishlari yuzasidan ular o‘rtasida muloqot va ijtimoiy so‘rovnomalar o‘tkazish hamda teatrning repertuarini shakllantirish, zamonaviy milliy va jahonning eng ilg‘or dramaturgiyasi namunalarini izlab topish va tavsiya etish bo‘yicha asosiy vazifalarni nazarda tutish.</p>	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil aprel	-	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)
12.	<p>Madaniyat va san‘at ta‘lim muassasalari o‘quvchi-talabalari uchun ta‘lim jarayonida foydalaniladigan 50 tagacha xorijiy adabiyotlarni davlat buyurtmasi asosida</p>	Amaliy chora-tadbirlar	2025 — 2028-yillar	Madaniyat vazirligiga ajratiladigan budget mablag‘lari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov), Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa’dullayev)

	o'zbek tiliga tarjima qilish amaliyotini joriy qilish.				
13.	<p>25 nafar ijodiy va yordamchi xodimlarning xorijiy davlatlar teatrlarida mahoratini oshirishni yo'lga qo'yish tizimini joriy qilish.</p> <p>Bunda teatrlarda samarali faoliyat yuritib kelayotgan ijodiy va yordamchi xodimlarni malaka oshirishga yuborish va mazkur muddat yakunlangach, ularning xorijda qolib ketishining oldini olish hamda mamlakatimiz teatrlarida faoliyat yuritishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish.</p>	Amaliy chora-tadbirlar	2025 — 2028-yillar	Tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Tashqi ishlar vazirligi (B. Saidov)
14.	Aholi, ayniqsa, yoshlarning teatr tomoshalari, kino namoyishlari va boshqa madaniy-ma'rifiy hamda sport tadbirlariga tashriflarini tizimli tashkil etish, doimiy tahlilini yuritib borish maqsadida Yagona elektron tizim faoliyatini yo'lga qo'yish.	Ijrochilarning qo'shma qarori	2025-yil yanvar	Tegishli vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablag'lari, homiylik xayriyalari, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa'dullayev), Yoshlar ittifoqi (X. Sattorov), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (O. Xasanov)
15.	O'zbekiston davlat yoshlar teatri hamda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatriga moliyaviy, ijodiy va tashkiliy masalalarni mustaqil hal qilish vakolati berilayotganligi	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil yanvardan boshlab	Tegishli vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablag'lari, homiylik xayriyalari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov), vazirlik va idoralar, Toshkent shahri hokimligi (Sh. Umurzakov)

	munosabati bilan ushbu teatrlarga har tomonlama, xususan, spektakl namoyishlariga tomoshabinlarni jalb qilishda amaliy yordam ko'rsatib borish.				
16.	O'zbekiston teatr jamoalarining milliy reytingini baholash va rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash.	Madaniyat vazirining buyrug'i	2025-yil fevral	Madaniyat vazirligiga ajratiladigan budget mablag'lari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), O'zbekiston teatr arboblari uyushmasi (Y. Axmedov)
17.	Quyidagilarni: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun stol usti, barmoq, qo'lqopli va qo'g'irchoqli kichik sahna ko'rinishlari sahnalashtirish hamda bolalar jamoalarini tuzish; umumiy o'rta ta'lim muassasalarida maktab teatr jamoalarini tashkil etish hamda ular o'rtasida "Turon" maktab teatri respublika tanlovini o'tkazish; "Barkamol avlod" bolalar maktablarida "Tasavvur" qo'g'irchoq teatri to'garaklarini tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yildan boshlab doimiy	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining budgetdan tashqari mablag'lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari
18.	Oliy ta'lim muassasalarida talabalar teatr-studiyalarini rivojlantirish hamda ular o'rtasida teatr-studiyalar respublika ko'rik-	Ijrochilarning qo'shma qarori	2025-yildan boshlab doimiy	Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari va oliy ta'lim muassasalarining budgetdan	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov), Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Qoraqalpog'iston Respublikasi

	festivalini o'tkazish to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish.			tashqari mablag'lari	Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari
19.	Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'rtasida o'tkaziladigan "Turon" maktab teatri respublika tanlovi hamda oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'tkaziladigan talabalar teatr-studiyalari respublika festivalining yuqori bosqichlarini teletanlov va tele-shou shaklida tashkil etish.	Ijrochilarning qo'shma qarori	2025-yildan boshlab doimiy	Tegishlicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining budjetdan tashqari mablag'lari, Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov), Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (A. Djurabayev)
20.	Davlat teatrlarida sahna asarlarining badiiy saviyasi, sahnaviy talqini yuzasidan taklif va tavsiyalar berish maqsadida janr va mavzuni inobatga olgan holda ixtisoslashgan badiiy-ekspert guruhlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash.	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi	2025-yil fevral	2025-yildan boshlab, Madaniyat vazirligiga ajratiladigan budjet mablag'lari, kelgusi yillarda Davlat budjeti mablag'lari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)
21.	Bolalar, o'quvchi va talabalarning yoshi, qiziqishlari, ta'lim va tarbiya olishi, ijodiy va intellektual rivojlanishini inobatga olib, har yili 10 ta pyesa yaratish. Ushbu pyesalarni Madaniyat vazirligi elektron tizimiga hamda boshqa tegishli axborot-resurs manbalariga	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yildan boshlab doimiy	Ijrochilar mablag'lari, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar	Yozuvchilar uyushmasi (S. Sayidov), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (O. Xasanov), Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

	belgilangan tartibda joylashtirib borish.				(K. Sharipov)
22.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahriga boshqa hududlardan kelib teatlarda faoliyat olib boradigan rejissyorning har oylik turar joy ijarasi hamda oziq-ovqat uchun xarajatlarini qoplab berish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yildan boshlab doimiy	Teatrlarning budjetdan tashqari mablag‘lari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)
23.	O‘zbekiston teatr arboblari uyushmasini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va teatr ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida 2025-yilda 1,0 mlrd, 2026-yilda 2,0 mlrd, 2027-yilda 2,0 mlrd so‘m miqdorida moliyaviy yordam ko‘rsatish. O‘zbekiston teatr arboblari uyushmasining hududiy bo‘limlarini tegishli hududda joylashgan Madaniyat vazirligi tizimidagi davlat teatlari binolariga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-2026-yillar	Madaniyat vazirligiga ajratiladigan budjet mablag‘lari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), O‘zbekiston teatr arboblari uyushmasi (Y. Axmedov)
24.	“27-mart — Xalqaro teatr kuni” munosabati bilan madaniy tadbir tashkil etish hamda samarali faoliyat yuritib kelayotgan teatr xodimlarini	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yildan boshlab doimiy	Madaniyat vazirligiga ajratiladigan budjet mablag‘lari, mahalliy budjet mablag‘lari,	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari

	munosib rag'batlantirib borish.			teatrlarning budjetdan tashqari mablag'lari, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar	
25.	Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali teatriga "Akademik" maqomi berilishi munosabat bilan teatrning ijodiy faoliyatini yanada kengaytirish.	Madaniyat vazirining buyrug'i	2025-yildan boshlab doimiy	Madaniyat vazirligiga ajratiladigan budjet mablag'lari, teatrning budjetdan tashqari mablag'lari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)
26.	Teatr san'ati ravnaqiga munosib hissa qo'shgan taniqli ijodkorlar tavallud sanalarini keng nishonlash, ularning ijodini chuqur o'rganish va targ'ib etish.	Amaliy chora-tadbirlar	Doimiy	Madaniyat vazirligiga ajratiladigan budjet mablag'lari, teatrlarning budjetdan tashqari mablag'lari, homiylik xayriyalari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)
27.	Teatrlar binolarida imkoniyati cheklangan shaxslar harakatlanishi uchun zaruriy sharoitlar yaratish maqsadida tiflosharhlovchi hamda surdotarjimon faoliyatini joriy etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025 — 2030-yillarda	Madaniyat vazirligiga ajratiladigan budjet mablag'lari, teatrlarning budjetdan tashqari mablag'lari, homiylik xayriyalari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)
28.	"Yangi O'zbekiston teatrlari — uchinchi Renessans ostonasida" nomli kitob-albomini tayyorlash va chop etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2026-yil davomida	Madaniyat vazirligining budjet mablag'lari va budjetdan tashqari jamg'armasi mablag'lari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)
29.	O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrlarining	Vazirlar Mahkamasi	2025-yil mart	Davlat budjeti mablag'lari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)

	ma'muriy-boshqaruv, badiiy rahbar hamda artist xodimlari ish haqini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	qarori loyihasi			
30.	O'zbekiston davlat yoshlar teatri va Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri tomonidan teatrlar faoliyati bilan bog'liq davlat xaridlarini ular faoliyatining o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda amalga oshirish bo'yicha tartibni ishlab chiqish.	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi	2025-yil fevral	-	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)
31.	Davlat teatrlarining ijodiy faoliyati hamda xodimlarning mahoratini yanada yaxshilash, zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish maqsadida xorijiy mamlakatlardan yetuk va malakali mutaxassislarni taklif etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil boshlab doimiy	Teatrlarning budjetdan tashqari mablag'lari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Tashqi ishlar vazirligi (B. Saidov)
32.	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida davlat teatrlari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish hamda ularga	Ijrochilarning qo'shma qarori	2025-yil yanvar	Teatrlarning budjetdan tashqari mablag'lari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)

	<p>menejerlik sertifikatini berish tizimini joriy qilish.</p> <p>Bunda davlat teatrlari direktorlari va o‘rinbosarlari hamda ushbu lavozimlarga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni belgilangan tartibda tasdiqlash.</p>				
33.	<p>Teatrlar faoliyatiga tahliliy baho berish, spektakllar haqida maqola, retsenziyalar yozish, ijodkorlarning ijodiy portretlarini yaratishda teatr tanqidchiligini yanada rivojlantirish hamda ularni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash.</p>	Madaniyat vazirining buyrug‘i	2025-yil fevraldan boshlab doimiy	Madaniyat vazirligiga ajratiladigan budget mablag‘lari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), O‘zbekiston teatr arboblari uyushmasi (Y. Axmedov)
34.	<p>Teatrlarning ijodiy faoliyati va tomoshalarini reklama qilish uchun keng qamrovli va doimiy PR strategiyasini amalga oshirish.</p> <p>Bunda: davlat teatrlarining mavjud rasmiy veb-saytlarini takomillashtirish, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatini yanada yaxshilash; teatrlar faoliyati bo‘yicha videoroliklar va teatr</p>	Amaliy chora-tadbirlar	Doimiy	Teatrlarning budgetdan tashqari mablag‘lari, homiylik xayriyalari, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov) O‘zbekiston axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev), O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi (A. Djurabayev), Transport vazirligi (I. Maxkamov), “Uzbekistan Airports” AJ (J. Umarxodjayev), “Uzbekistan Airways” AJ (Sh. Xudoyqulov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi,

<p>hayoti haqida turkum ko'rsatuvlar tayyorlab ommaviy axborot vositalarida namoyishini tashkil etish;</p> <p>Toshkent shahri va respublikaning turistik markazlarida teatrlar reklamasini joylashtirish;</p> <p>teatrlar faoliyatini mahalliy telekanallar va respublikaning boshqa ommaviy axborot vositalarida yoritish;</p> <p>milliy aviakompaniyaning xorijiy va ichki reyslarining bort jurnallarida, shuningdek, aeroportlar, vokzallar va avtovokzallarning vestibyullari, kutish joylari, kirish-chiqish joylaridagi reklama joylarida teatrlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish;</p> <p>aholi keng foydalanadigan Instagram, YouTube, Facebook va VKontakte kabi ijtimoiy tarmoqlarda teatrlarning sahifalarini ochish;</p> <p>ijtimoiy tarmoqlarda keng auditoriyaga ega bloger va inflyuenserlarni jalb etgan holda teatrlar bo'ylab maxsus ekskursiya tashkil etish va ularning</p>				<p>viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari</p>
--	--	--	--	---

	ijtimoiy tarmoqlari orqali keng auditoriyaga namoyish etish; teatrlarga o'z faoliyatini yoritish uchun biletlar sotuvidan olingan mablag'lar hisobidan ijtimoiy tarmoqlarda hamda internet tarmog'ida reklama xizmatlarini tashkil qilish (SMM, target) uchun shartnomalar tuzishga ruxsat berish.				
35.	O'zbek, qoraqalpoq va jahon mumtoz san'ati an'alarini, xususan, teatr san'atini yanada rivojlantirish va targ'ib qilishda "Qoraqalpog'iston san'at saroyi" davlat muassasasi rolini oshirish maqsadida ushbu muassasa xodimlarining ish haqi miqdorlarini 2025-yil 1-yanvardan boshlab — 20 foizga, 2025-yil 1-iyuldan boshlab — yana 15 foizga oshirish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil 1-yanvar 2025-yil 1-iyul	Davlat budjeti mablag'lari	Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi (F. Ermanov)
36.	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrining balet polini ta'mirlash hamda gastrollar uchun ko'chma balet pol yaratish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil	Davlat budjeti mablag'lari	Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi (G. Umerova), Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)
37.	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil	Davlat budjeti mablag'lari	Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi (G. Umerova),

	teatriga balet maktabi uchun yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilishga ruxsat berish.					Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)
38.	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrini musiqa cholg'ulari bilan ta'minlash.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil	Davlat budjeti mablag'lari		Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi (G. Umerova), Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-son qaroriga
4-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2270-son qaroriga 35-ilovaning izoh qismi **3-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"3. Bolalar musiqa va san'at maktablarini saqlab turish bilan bog'liq barcha xarajatlar (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, kommunal xarajatlar) O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab boriladi".

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son **qarori** quyidagi mazmundagi 2¹-band bilan to'ldirilsin:

"2¹. Madaniyat vazirligi tizimidagi bolalar musiqa va san'at maktablarining:

direktori, direktor o'rinbosarlari, o'qituvchi va konsertmeysterlarining ish haqi miqdorlari 2025-yil 1-yanvardan boshlab 10 foizga oshirilsin;

2025-yil 1-fevraldan boshlab kommunal xizmatlardan foydalanish bo'yicha belgilangan har oylik xarajatlar limiti O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilsin.

Madaniyat vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda 2025-yil 1-fevralga qadar:

a) bolalar musiqa va san'at maktablarida ota-onalar tomonidan bolalarning bolalar musiqa va san'at maktablarida o'qishi uchun haq to'lash va undan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomga tegishli o'zgartirishlar kiritilsin.

Bunda mazkur mablag'lar bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ma'muriy-boshqaruv xodimlari, barcha toifadagi xodimlarni moddiy rag'batlantirib borish, o'quvchi, o'qituvchi va konsertmeysterlarni respublika hamda xalqaro tanlovlar, festivallar, ijodiy mashg'ulotlarga yuborish bilan bog'liq xarajatlarni to'lashga yo'naltirilishi nazarda tutilsin;

b) bolalar musiqa va san'at maktablarida Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan kommunal to'lovlar bo'yicha har oylik limitni tasdiqlasin.

Belgilansinki:

mazkur bandning ijrosi uchun talab etiladigan xarajatlar Madaniyat vazirligi tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblarga muvofiq 2025-yildan boshlab Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladi;

bolalar musiqa va san'at maktablari uchun kommunal xizmatlardan foydalanish bo'yicha belgilangan limitdan ortiq sarflangan kommunal xizmatlar uchun to'lovlar ota-onalar badali to'lovlari hisobidan moliyalashtiriladi".

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-dekabrda "Opera va balet san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-64-son qarorida:

a) 7-bandning **birinchi xatboshisidagi** "to'rtta" so'zi "ikkita" so'zi bilan almashtirilsin;

b) 9-bandning **birinchi xatboshisidagi** "har yili" so'zlari "har ikki yilda bir marotaba" so'zlari bilan almashtirilsin;

v) 2-ilovaning **matni** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri tomonidan 2022 — 2026-yillarda eng sara milliy, jahon opera va balet asarlarini sahnalashtirish repertuar

REJASI

T/r	Spektakllar nomi	Muddati
1.	"Alisher Navoiy" operasi, M. Bafoyev	2022-yil
2.	"Jaloliddin Manguberdi" baleti, R. Abdullayev	
3.	"Maskarad bali" operasi, J. Verdi	2023-yil
4.	"Shoir qalbi" operasi, M. Ashrafiy	
5.	"Yevgeniy Onegin" operasi, P. Chaykovskiy	2024-yil
6.	"Oqqush ko'li" baleti, P. Chaykovskiy	
7.	"Kashmir afsonasi" baleti, G. Mushel	2025-yil
8.	"Don Juan" operasi, V. Motsart	
9.	"Asilzoda xonim" baleti, P. Chaykovskiy	2026-yil
10.	"Zolushka" baleti, S. Prokofyev	
11.	"Sevgi tumori" baleti, M. Ashrafiy	2027-yil
12.	"Romeo va Julyetta" operasi, Sh. Guno	
13.	"Spartak" baleti, A. Xachaturyan, Y. Grigorovich	2028-yil
14.	"Zaynab va omon" operasi, T. Sodiqov, B. Zeydman, Y. Rajabiy, D. Zakirov	
15.	"Korsar" baleti, A. Adan	2029-yil
16.	"Bobur" operasi, (tanlov)	
17.	"Alpomish" operasi, X. Rahimov	2030-yil
18.	"Nasriddinning yoshligi" baleti, S. Yudakov	
19.	"Turandot" operasi, Puchchini	2031-yil
20.	"Raymonda" baleti, A. Glazunov	

Izoh: zaruratga ko'ra Madaniyat vazirligi yoki Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishgan holda ushbu rejaga o'zgartirish kiritish huquqi beriladi";

g) 6-ilovaning **matni** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri Vasiylik kengashi

TARKIBI

- B.B. Siddiqov — "O'zbekneftgaz" AJ boshqaruvi raisi, *Vasiylik kengashi raisi*
- G.O. Umerova — Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi raisi, *Vasiylik kengashi raisi o'rinbosari*
- A.B. Tadjixanov — madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari, *Vasiylik kengashi raisi o'rinbosari*
- A.X. Xursanov — "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ raisi
- Q.S. Sanaqulov — "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ raisi
- O.E. Musayev — O'zbekiston madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi raisi
- R.A. Abdullayev — O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi

8. R.B. Usmonov — Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatri direktori, *Vasiylik kengashi kotibi*

Izohlar:

Vasiylik kengashi raisiga Vasiylik kengashi tarkibiga boshqa homiylar, metsenat va tadbirkorlik subyektlarini ularning tashabbusi asosida kiritish huquqi beriladi;

Vasiylik kengashi a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi”.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-329-son **qarorida:**

a) **6-ilovaning** 11-pozitsiyasi chiqarib tashlansin;

b) **7-ilova** quyidagi mazmundagi 20-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

“

20.	Temiryo‘lchilar madaniyat saroyi	Andijon viloyati, Andijon shahri, Mustaqillik MFY, Istiqlol ko‘chasi, 7-uy	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	Andijon viloyati yoshlar teatri
-----	----------------------------------	--	---	---------------------------------

”.

(Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2024-y., 07/24/399/1000-son)